| Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....               | 309 |
| <i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>                                                                                                                         |     |
| Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....                  | 313 |
| <i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi .....                                                                                               | 319 |
| <b>Aslonov Madamin Mansurovich</b>                                                                                                                                       |     |
| Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati .....                                                                        | 324 |
| <b>Allanov Shuxrat Qilichovich</b>                                                                                                                                       |     |
| Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari .....                                                                        | 329 |
| <b>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari .....                                                        | 335 |
| <b>Babadjanova Saiyora Khushnutovna</b>                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari .....                                                           | 340 |
| <b>Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna</b>                                                                                                                                   |     |
| Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti .....                         | 346 |
| <b>Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li</b>                                                                                                                              |     |
| Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi .....                                           | 353 |
| <b>Axmedova Dildora Olimjonovna</b>                                                                                                                                      |     |
| Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash .....                                                                                    | 359 |
| <b>Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati .....                                                                                             | 365 |
| <b>Achilova Durdona</b>                                                                                                                                                  |     |
| Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi .....                                                                              | 370 |
| <b>Niyozova Dिल्фуза Rustam qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .....   | 375 |
| <b>Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi</b>                                                                                                                         |     |
| Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish ..... | 380 |
| <b>X. I. Malikova</b>                                                                                                                                                    |     |

# BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INNOVASION SURDO-TEXNOLOGIYALAR, NEYRO-TRENAJYORLAR VA FAOL PRAKSIOLOGIK METODLARNING INTERAKTIV SINERGIYASINI JORIY ETISH

X. I. Malikova

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti  
"Ta'lim menejmenti" kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak surdopedagoglarni oliy ta'lim bosqichida tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish hamda integrativ-praksiologik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim jarayoniga innovatsion raqamli surdo-texnologiyalar, bosh miyaning kognitiv faolligini faollashtiruvchi neyro-trenajyorlar hamda amaliy faoliyat samaradorligini oshiruvchi praksiologik metodlarning interaktiv integratsiyasiga asoslangan o'quv modelini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari mazkur yondashuv bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish hamda inklyuziv ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** surdopedagogika, oliy ta'lim, raqamli surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar, praksiologik metodlar, kasbiy kompetensiya, kognitiv faoliyat, sensor deprivatsiya.

**Abstract:** This article examines the scientific and methodological foundations for modernizing the system of training future teachers of the deaf and hard of hearing in higher education institutions, improving the quality of their professional preparation, and developing their integrative praxeological competencies. The primary objective of the study is to develop and substantiate an educational model based on the integration of innovative digital hearing-support technologies, neurotrainers designed to enhance brain cognitive activity, and praxeological methods aimed at optimizing the effectiveness of professional practice. The findings demonstrate that the proposed approach contributes to strengthening the professional competencies of future deaf educators, improving their practical skills, and increasing their effectiveness in inclusive educational environments.

**Key words:** deaf education, higher education, digital hearing-support technologies, neurotrainers, praxeological methods, professional competence, cognitive activity, sensory deprivation.

**Аннотация:** В статье раскрываются научно-методические основы модернизации системы подготовки будущих сурдопедогогов в учреждениях высшего образования, повышения качества их профессиональной подготовки и развития интергративно-праксиологических компетенций. Основной целью исследования является разработка и научное обоснование образовательной модели, основанной на интеграции инновационных цифровых сурдотехнологий, нейротренажёров, активизирующих когнитивную деятельность головного мозга, а также прaksiологических методов, направленных на повышение эффективности профессионально-практической деятельности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что предложенный подход способствует развитию профессиональных компетенций будущих сурдопедогогов, совершенствованию их практических навыков и повышению эффективности деятельности в условиях инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** сурдопедagogika, высшее образование, цифровые сурдотехнологии, нейротренажёры, прaksiологические методы, профессиональная компетентность, когнитивная деятельность, сенсорная депривация.



## KIRISH

Jahon ta'lim makonida inklyuziv va maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, eshitishda nuqsonlari bo'lgan bolalarga surdopedagogik, reabilitatsion hamda abilitatsion yordam sifatini oshirish bevosita oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari salohiyatiga bog'liqdir. Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish fenomeni nafaqat akademik-nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki ta'lim mazmunining nazariy va pragmatik komponentlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hamda metodik va amaliy kompetensiyalarning integratsiyasini ham taqozo etadi.

Surdopedagogik ta'limda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini tizimli-strukturaviy jihatdan tadqiq etish bilish nazariyasi va ilmiy metodologiyaning fundamental asosi bo'lgan gnoseologik yondashuvni tahlil qilishni talab etadi. Surdopedagogik ta'lim paradigmasida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining konseptual-huquqiy asoslari xalqaro umume'tirof etilgan normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimining modernizatsiyalashuvi hamda ta'lim muhitining variativlashuvi bilan xarakterlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global miqyosda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi va "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyalari, shuningdek, maxsus ta'limning asosiy hujjatlaridan biri hisoblangan "Salamanka deklaratsiyasi" rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning teng huquqli ta'lim olishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatlar surdopedagog mutaxassislar zimmasiga kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi hamda kompensator-moslashuv imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan amaliy-metodik faoliyatni amalga oshirish vazifasini yuklaydi.

Xalqaro normalarning mazmuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, surdopedagogik yordam sifati bevosita nazariy bilimlarning amaliy korreksion-innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga bog'liq.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim tizimini izchil isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilim va mustaqil fikrlash kompetensiyalariga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategik vazifalar sifatida belgilangan <sup>[1]</sup>.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi hamda ularning sifatli ta'lim olish huquqlarini kafolatlash zamonaviy surdopedagogika ta'limi oldiga mutlaqo yangi, tizimli talablarni qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan, xususan, eshitishda nuqsoni mavjud shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ularga ta'lim beruvchi kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini belgilashda mazkur qonunchilik hujjatlarining strategik yo'nalishlarini tahlil qilish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-1021-son Qonuni BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi tamoyillariga to'liq muvofiqlashtirildi. Mazkur qonunchilikdagi o'zgarishlar bo'lajak surdopedagoglar oldiga nafaqat pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, balki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy va huquqiy himoyachisi sifatida faoliyat yuritish, jamiyatda ularga nisbatan diskriminatsiyasiz muhitni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'lish kabi yangi talablarni qo'ydi.

Mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatining izchil davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266-son Qarori qabul qilindi <sup>[3]</sup>. Ushbu qaror surdopedagogika ta'limi tizimida inklyuziv transformatsiyani ta'minlovchi muhim me'yoriy-huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni asosida bo'lajak surdopedagog nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, ilm-fan, texnika, san'at va sportga keng jalb etishga ko'maklashishi lozim. Mazkur Qonunga muvofiq, nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarining ustuvorligi ularga nisbatan amalga oshiriladigan barcha faoliyat va qarorlarning asosiy tamoyili hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va sinergetik yondashuvlar asos qilib olindi. Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil, kuzatish, pedagogik tajriba hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion surdo-texnologi-

yalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv qo'llanilishi samaradorligi amaliy sinovlar asosida baholandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktyabrdagi "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-407-son Qarori orqali o'zbek imo-ishora tilining huquqiy maqomini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda darsliklar va lug'atlarni yangilash hamda imkoniyati cheklangan vatandoshlarimizning davlat organlari va ijtimoiy hayotda hech qanday to'siqlarsiz muloqot qilishiga sharoit yaratish ko'zda tutilgan. Mazkur qaror bo'lajak surdopedagoglarning milliy imo-ishora tilini va surdotarjimonlik malakasini majburiy o'zlashtirishi, ularning dars jarayonida ikki tili (bilingval) ta'lim muhitini yarata olish malakasiga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'lim tizimida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash murakkab ijtimoiy-pedagogik fenomen bo'lib, uning mazmuni va yo'nalishlari global hamda milliy darajadagi falsafiy-huquqiy g'oyalar sintezi asosida belgilanadi. Bugungi kunda surdopedagog kadrlarning metodik va amaliy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni faqat tor doiradagi metodik bilimlarni transformatsiya qilish bilan cheklanmay, balki bo'lajak mutaxassisning inson qadr-qimmatini, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan falsafiy-huquqiy dunyoqarashini tizimli rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Jahon maxsus ta'lim amaliyotida inklyuziv va defektologik yordam ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish, xususan, eshitish va nutq anomaliyalariga ega bo'lgan bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda fanlararo yondashuv ustuvor yo'nalishga aylandi.

Zamonaviy surdopedagogika fani nafaqat sof pedagogik metodlarga, balki neyrobiologiya, kognitiv psixologiya va neyropedagogika yutuqlariga tayangan holda rivojlanmoqda. Mazkur holat oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion surdo-texnologiyalar va neyro-trenajyorlar sinergiyasini ta'minlash dolzarbligini belgilaydi.

An'anaviy surdo-metodikalar (ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ishlash, majburiy artikulyatsion mashqlar, surdopedagogik massajlar) ko'p yillar davomida ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, ular lokal va tarqoq xarakterga ega. Ushbu metodlar nuqsonning tashqi namoyon bo'lish shakllari bilan kurashadi, ammo bosh miya po'stlog'idagi oliy ruhiy funksiyalarning kompensator imkoniyatlarini fundamental darajada faollashtira olmaydi. Neyro-trenajyorlar esa pedagogik jarayonda inson organizmidagi jismoniy harakatlarni bosh miya faoliyati bilan sinxronlashtiruvchi innovatsion vosita sifatida surdopedagogikaga kirib kelmoqda.

Neyropedagogik yondashuv hamda harakat orqali miya faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi xorijiy olimlar A.R. Luriya, N.A. Bernshteyn, J. Ayres va J. Bilgou tomonidan ilmiy asoslangan. A.R. Luriyaning "miyaning uchta funksional bloki" haqidagi ta'limotiga ko'ra, insonning har qanday ruhiy faoliyati, jumladan, nutq va eshitish idroki ham miya tuzilmalarining birgalikdagi sinxron faoliyatini talab etadi <sup>[4]</sup>.

J. Ayresning "Sensor integratsiya" nazariyasi esa surdopedagogikada neyro-trenajyorlarni qo'llashning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda tashqi olamdan tovush signallarining kelmasligi yoki buzilgan holda qabul qilinishi natijasida miya vizual, taktil va propriotseptiv (tana sezgisi) axborotlarni integratsiyalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar M. Aytjanova va I. Sirotiyukning fikricha, maxsus ta'limda harakatli neyropsixologik mashqlar va trenajyorlar diqqat tarqoqligini kamaytirish hamda nutq markazlarini faollashtirishda an'anaviy dars usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega <sup>[5]</sup>.

Zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlovchi bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash mazmuni va sifatiga tubdan yangilangan ijtimoiy-pedagogik talablarni qo'ymoqda. Bugungi raqamli jamiyat va ta'lim ekotizimi mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh surdopedagoglardan nafaqat klassik defektologik-nazariy bilimlarni, balki zamonaviy raqamli dasturiy ta'minotlarni, neyropedagogik vositalarni hamda korreksion-amaliy metodlarni samarali qo'llay olish ko'nikmalarini ham talab qilmoqda.

Biroq, an'anaviy oliy surdopedagogik ta'lim amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, talabalarning nazariy tayyorgarligi darajasi bilan ularning real maxsus maktab-internatlar sharoitidagi kasbiy-amaliy faoliyati o'rtasida mantiqiy uzilishlar saqlanib qolmoqda.

Talabalar auditoriyada defektologiya qonuniyatlarini nazariy jihatdan yaxshi o'zlashtirgan bo'lsalar-da, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan bevosita klinik-amaliy muloqotga kirishishda, raqamli texnologiyalarni boshqarishda hamda bolaning individual neyropsixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik qarorlar qabul qilishda jiddiy praksiologik qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mazkur pedagogik ziddiyatni bartaraf etish oliy ta'lim jarayoniga uchta mustaqil va innovatsion yo'nalishni, ya'ni raqamli surdo-texnologiyalarni, bosh miya faoliyati va harakatlarni muvofiqlashtiruvchi neyro-trenajyorlarni hamda amaliy mehnat samaradorligini baholovchi faol praksiologik metodlarni integratsiya qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu komponentlarni o'quv jarayoniga alohida, tarqoq yoki shunchaki ketma-ketlik elementlari sifatida kiritish kutilgan yuqori pedagogik natijani bermaydi. Mazkur komponentlar bir-birini inkor etmasdan, aksincha, o'zaro to'ldirgan holda yangi sifat darajasini yuzaga keltirishi zarur.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning asosiy ilmiy konsepsiyasi mazkur uchta ustuvor komponentning interaktiv o'zaro ta'siri va bir-birini kuchaytiruvchi sinergetik uyg'unligini ta'minlovchi yaxlit, tizimli metodikani ishlab chiqish hamda uni oliy ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Mazkur sinergetik metodika bo'lajak surdopedagoglarda nazariya va amaliyot birligini ta'minlovchi integrativ-praksiologik kompetensiyani shakllantirishning asosiy didaktik sharti sifatida qaraladi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning metodologik asoslarini belgilashda fanlararo integratsiya va tizimlilik tamoyillariga tayandik.

Pedagogik tizimlarda sinergetik yondashuv va o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlari I. Prigojin va G. Xakenning fundamental ilmiy ishlarida falsafiy hamda tabiiy-ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Pedagogika fanlari kontekstida sinergetika prinsiplari V. Budanov, S. Kulpina va V. Andreev tomonidan tadqiq etilib, ta'lim jarayonidagi tarqoq didaktik vositalarning yagona maqsad asosida integratsiyalashuvi natijasida tizimda yangi sifat bosqichini ifodalovchi "integrativ samara" yuzaga kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Surdopedagogikada raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari R. Boskis, I. Koroleva, K. Mamedov va F. Rau kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan [6]. Ular eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish va tiklashda audiovizual kompyuter dasturlarining ahamiyatini yuqori baholaganlar. Biroq ushbu tadqiqotlarda texnologiyalar asosan texnik yordamchi vosita sifatida talqin etilgan.

Harakat, muvozanat va tana praksiyasi orqali bosh miya po'stlog'i faolligini hamda kognitiv jarayonlarni rivojlantirish konsepsiyasi neyropsixologiyaning asoschisi A.R. Luriya va inson harakatlarining darajama-daraja qurilishi nazariyasi muallifi N.A. Bernshteynning ilmiy ishlarida fundamental tarzda ishlab chiqilgan.

A.R. Luriya insonning har qanday murakkab kasbiy faoliyati bosh miyaning uchta funksional bloki - energetik, axborotni qabul qilish va qayta ishlash hamda dasturlash-nazorat qilish bloklarining sinxron faoliyati mahsuli ekanligini, mazkur tizimda harakat praksiyasi muhim o'rin tutishini ta'kidlagan [5].

J. Ayresning "Sensor integratsiya" nazariyasi esa kar va zaif eshituvchi bolalarning vestibulyar, taktil hamda propriotseptiv sezgilarini harakat orqali integratsiyalash zarurligini metodologik jihatdan asoslaydi. Faoliyat samaradorligi va maqsadga muvofiqligini o'rganuvchi praksiologik yondashuv ta'lim tizimiga T. Kotarbinskiy, L. fon Mizes hamda zamonaviy pedagog olimlarning tadqiqotlari orqali kirib kelgan [6]. Ularning fikricha, bo'lajak surdopedagogning kompetensiyasi faqat bilimlar yig'indisidan iborat emas, balki mehnat faoliyatini eng kam kuch va vaqt sarflagan holda maksimal natija bilan amalga oshirish mahoratini ham o'z ichiga oladi.

Biroq, hozirgi kunga qadar oliy surdopedagogik ta'lim tizimida raqamli surdo-texnologiyalarning texnik imkoniyatlarini, neyro-trenajyorlarning kognitiv salohiyatini hamda praksiologiyaning faol metodlarini yagona interaktiv sinergiyaga birlashtirish orqali bo'lajak surdopedagoglarning klinik-amaliy tayyorgarligini optimallashtirish metodikasi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan va tizimlashtirilmagan.

Olib borilgan ko'p yillik nazariy tahlillar, metodologik izlanishlar hamda empirik-pedagogik eksperiment natijalari asosida quyidagi tizimli ilmiy xulosalarga kelindi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini texnologik va mazmuniy jihatdan modernizatsiya qilish faqat texnik dasturlar sonini mexanik ravishda ko'paytirishni emas, balki surdo-texnologiyalar, neyropsixologik trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning o'zaro interaktiv sinergiyasini yaratishni talab etadi. Ishlab chiqilgan "Uch bosqichli sinergetik implantatsiya" metodikasi talabalarning bosh miya faoliyatini (miyacha va yarim sharlararo aloqalarni) faollashtirish orqali nazariy bilimlarning real kasbiy-korreksion harakatlarga transformatsiyalanish vaqtini qisqartiradi, imo-ishora nutqi va daktilologiyaning ijro aniqligi hamda tezkorligini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayoniga innovatsion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni, kognitiv faollikni hamda korreksion-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar va neyropedagogik yondashuvlarning integratsiyasi surdopedagoglarning innovatsion fikrlashini, mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun mustahkam metodik asos yaratadi. Natijada oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, zamonaviy bilim, ko'nikma va amaliy kompetensiyalarga ega surdopedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyatlari yanada kengayadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Всеобщая декларация прав человека: принята и провозглашена резолюцией 217 А (III) Генеральной Ассамблеи ООН от 10 декабря 1948 г.
2. Конвенция о правах инвалидов: принята 13 декабря 2006 г.; ратифицирована Законом Республики Узбекистан от 7 июня 2021 г. № О'РҚ-693.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2022 yil 17 fevral, PF-74-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2024 yil 19 iyul, PQ-266-son.
5. Сербина Л. Ф. Воспитание профессионально-гуманистической направленности личности учителя-дефектолога : автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 1992. - 17 с.
6. Рязанова Е. В. Организационно-педагогический процесс по формированию эмпатии как нравственного качества личности у будущих учителей-сурдопедагогов. - Екатеринбург, 2005.
7. Назарова Н. М. Историческое образование в структуре профессиональной подготовки сурдопедагога // Два века российской сурдопедагогики : материалы Всероссийского конгресса сурдопедагогов. - Санкт-Петербург : Наука-Питер, 2006. - С. 24-29.
8. Алмазов Б. Н. Методика и технологии работы социального педагога. - Москва : Академия, 2007.
9. Neild N. R., Graham P. J. Cases on Teacher Preparation in Deaf Education. - Hershey, PA : IGI Global, 2021. - 353 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.